

**"DUAL TA'LIM TIZIMI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA MA
LAKALI KADRLAR TAYYORLASH"**

Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti:

Tel: +998 91 765 26 05

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tizimida sifatli pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy usuli dual ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi va uning ahamiyati tahlil qilinadi. Dual ta'lim tizimi nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtiruvchi, talabalarni o'quv jarayonida ham, ish joyida ham rag'batlantiruvchi ta'lim tizimi sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, maktabgacha ta'lim, kadrlar tayyorlash, pedagog, hamkorlik, ta'lim sifati.

Abstract: The modern method of training highquality pedagogical personnel in the preschool education system – the establishment of a dual education system – and its importance are analyzed. The dual education system is seen as an educational system that combines theoretical knowledge with practical experience, motivating students both in the educational process and in the workplace.

Keywords: dual education, preschool education, personnel training, teacher, cooperation, quality of education.

Аннотация: В статье анализируется современный метод подготовки высококвалифицированных педагогических кадров в системе дошкольного образования – создание дуальной системы образования –и его значение. Дуальная система образования рассматривается как образовательная система, сочетающая теоретические знания с практическим опытом, мотивирующая учащихся как в процессе обучения, так и на рабочем месте.

Ключевые слова: дуальное образование, дошкольное образование, подготовка кадров, учитель, сотрудничество, качество образования.

O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelgan dual ta'lim modeli kasbiy tayyorgarlik sifatini tubdan o'zgartirish, talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni oshirish va mehnat bozorining haqiqiy ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislar yetishtirish imkoniyatini yaratmoqda. Bu jarayon ayniqsa kelajak avlodning ilk va eng muhim bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasida katta ahamiyat kasb etadi.

Dual ta’lim – ta’lim oluvchilarga zarur bilim, malaka va ko’nikmalarni berishga qaratilgan bo’lib, ularning nazariy qismi ta’lim muassasasida, amaliy qismi esa ish joyida amalga oshiriladigan ta’lim shakli hisoblanadi. Bunda, odatda, o’quvchilar haftaning 3-kunda o’quv muassasasida nazariy bilim olishga, qolgan kunlarini esa hamkor korxona yoki tashkilotlarda amaliy tajriba orttirishga bag’ishlaydi.

Bu tizim dastlab Germaniya professional ta’limida keng qo’llanilgan bo’lib, keyinchalik O’zbekiston tomonidan mahalliy sharoitga moslashtirilib, 2021-yil 29 – martsanasida Vazirlar Mahkamasining 163-sonli qarori bilan tasdiqlangan. [1]. Asosiy maqsad, an’anaviy ta’limning nazariya va amaliyot o’rtasidagi tafovutini bartaraf etib, mehnat bozori ning aniq talablariga mos kadrlar tayyorlashdir.



MAKTABGACHA YOSH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ularning kelajakdagi ta’limi va shaxsiy taqqiyoti uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu sohada faoliyat yuritadigan tarbiyachilar nafaqat pedagogik bilimga, balki bolalar psixologiyasi, zamonaviy o’yin texnologiyalari va individual yondashuvni amalda qo’llash bo’yicha chuqur amaliy ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak.

An’anaviy o’qitish usullari ko’pincha ushbu amaliy komponentni cheklab qo’yadi. Dual ta’lim esa talabalarga:

Real muhitda ishlash imkoniyatini beradi: Kasb-hunar maktablarida o’qiyotgan talabalar bolalar bog’chalari va bog’chalar bilan shartnoma asosida hamkorlik qilib, to’g’ridan-to’g’ri bolalar bilan ishlash tajribasiga ega bo’lishadi. Ta’lim muassasasida

o'rganilgan bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish va korxona yoki tashkilotdagi ustozlardan malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-sonli qarori va unga ilova qilingan "Nizom" professional ta'lim muassasalarida dual ta'limni tashkil etishning aniq bosqichlarini, shartnoma tuzish tartibini va barcha ishtirokchilarning vazifalarini belgilab berdi. [2]. Mazkur qaror hozirda ko'plab talabalar bir vaqtning o'zida ta'lim m olish bilan birgalikda o'z faoliyatini olib bormoqda, bu esa korxonaning kelgusida o'z talablarga mos kadrlarning yetishib dalolatidir.

Hozirgi kunda respublikada 234 ta professional ta'lim muassasasida 15 mingga yaqin o'q uvchi dual ta'lim shaklida ta'lim olmoqda. Ulardan bir qismi maktabgacha ta'lim yo'nalishi t alabalari hisoblanadi. Amaliyotni ta'minlash uchun 3600 dan ortiq korxona va tashkilot, shu jumladan bolalar bog'chalari ham ushbu tizimda ishtirok etmoqda. O'quvchilarga 3144 naf ar malakali xodimlar "ustoz" sifatida biriktirilgan bo'lib, ular o'quvchilarni ish joyida to'g'r idan-to'g'ri qo'llab-quvvatlamoqda.[3].

Dual ta'limni joriy etish jarayoni bir qator muammolar bilan birga kelmoqda. Ta'lim mua ssasalari, xususan hududlardagi kasb-hunar maktablari, zamonaviy o'quv uskunalari bilan ta'minlanmagan. Ushbu muammoni xalqaro hamkorlar (masalan, Yevropa Ittifoqi) yordami bilan texnika va jihozlar bilan ta'minlash orqali yechishga harakat qilinmoqda.

Malakali ustoz-pedagoglarning kamligi: Maktabgacha ta'lim muassasalarida talabalarga

rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan malakali va metodik jihatdan tayyorlangan ustozlar son i hali yetarli emas. Buning uchun ustoz-pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda va xorijiy tajribadan (Germaniya, Shveysariya) foydalanilmoqda.

3. Ta'lim Dasturlarini uyg'unlashtirish muammosi: Nazariy dasturlar bilan amaliyot joyla ridagi talablar o'rtasida ba'zan nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, mehnat b ozori talablarini doimiy o'rganish va ta'lim dasturlarini yangilab borish zarur.

Mazkur muammolardan kelib chiqib kuchli hamkorlik aloqalarini o'rnatish: Kasb-hunar maktablari bilan maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida uzoq muddatli va barqaror hamkorlik shartnomalari tuzilishi kerak.

Ustoz-pedagoglarni rag'batlantirish: Amaliyot rahbarlari uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini joriy etish ularning ishtiyoqini oshiradi. O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini baholashning aniq mezonlari ishlab chiqilishi va natijalar doimiy monitoring qilinishi lozim.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim – bu millatimiz kelajagini qurishning poydevori. Shu poydevorni mustahkam qilish uchun dual ta'lim orqali tayyorlanayotgan yangi avlod malakali tarbiyachilar yetuk mutaxassis, samarali amaliyotchi va mehnat bozorida talab

qilinadigan kadr sifatida shakllanishi Yangi O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini oshirishga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish. 16.01. 2025.
2. Dual ta'limning afzalligi : Muhayyo Toshqorayeva O'zbekiston milliy axborot agentli gi.
3. Dual ta'limning afzalligi : Muhayyo Toshqorayeva O'zbekiston milliy axborot agentli gi.
4. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etilishi.
5. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimining marketing i mkonyatlari xasanova adolat shukrullayeva.